



Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishi va tashkil topishi

Xabibullo xoji Muxammadyusuf
AIFU magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishi va tashkil topishi, shuningdek, kelib chiqishi tarixi haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: xorazmshohlar, Xorazm, hukmdorlar, turkiylar, moʻgʻullar, saljuqiylar, Anushtegin

Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishi uning toʻla davlat mustaqilligiga erishish uchun intilishi va bunga musharraf boʻlishi milliy davlatchiligimizning, baʼzi fojiaiy davrlarni istisno qilganda, gullab-yashnagan taraqqiyotni boshdan kechirishi voqealari bilan bogʻliq.

Xorazmshohlar davlati, Xorazm hududida joylashgan boʻlib, oʻzining tarixiy ahamiyati va madaniyati bilan tanilgan. Bu davlat IX asrda tashkil topgan. Xorazmshohlar davlatining asosiy markazi Xorazm shahrida joylashgan boʻlib, u oʻz davrida ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida rivojlangan.

Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi, asosan, Xorazm hududida yashovchi turkiy qabilalarning birlashishi va oʻzaro ittifoq tuzishi bilan bogʻliq. Bu davlat, shuningdek, Samanidlar va boshqa mahalliy hukmdorlar bilan munosabatlar oʻrnatgan. Xorazmshohlar davlatining eng mashhur hukmdorlaridan biri Muhammad Xorazmshoh boʻlib, u oʻz davrida davlatni yanada kengaytirgan va kuchaytirgan.

Xorazmshohlar davlati, shuningdek, Moʻgʻullar istilosi davrida ham muhim rol oʻynagan. XIII asrda Moʻgʻullar tomonidan bosib olinishi natijasida davlatning qulashiga olib keldi, ammo uning madaniy merosi va ilmiy yutuqlari keyinchalik ham saqlanib qoldi. Xorazmshohlar davlati oʻzining boy tarixi va madaniyati bilan Oʻrta Osiyo tarixida muhim oʻrin egallaydi.

Xorazmshohlar davlati oʻrta asr Turk-islom davlatlarining aniq, mashhur boʻlgan barcha xususiyatlarini oʻzida mujassamlashtirgan. Bu davlat turi Abbosiylarning ilk asrlardagi oʻrtaga chiqqan va (Vizantiya yanada koʻproq Sosoniy xususiyatini koʻrsatganidek) arab islom unsurlari bilan mintaqalarga koʻra mahalliy xususiyatlarga ham egadir. Oʻrta asr islom davlatlarining mushtarak xarakterlarini boshqaruv shaklining oʻxshashligidan anglash qiyin emas. Shubhasizki, turklar ham bu boshqaruv shakliga oʻzlaridan bir qancha xususiyatlarni qoʻshgandirlar. Bunga koʻra davlat bir hukmdor tomonidan boshqariladi va hukmdorning oilasi boshqaruvning asosini tashkil qiladi. Davlat oʻz fuqarosining havfsizligini saqlash, huzur-halovat muhitini yaratish va tushunmovchiliklarni bartaraf qilib, adolat oʻrnatishga burchlidir. Bu barcha masʼuliyatlarni, javobgarliklarni turli tashkilot, muassasa va maʼmurlarning qoʻllari bilan amalga oshiradi. Bunga javoban xalqdan talab qilinadigani esa bu itoat qilishdir. Soliqni toʻlash uning ogʻir, muhim toʻlovlaridan biridir. Ilmiy tushuncha bilan koʻrsatganimiz bu davlat modeli oʻrta asr islom davlatlarining mushtarak harakatlarini shakllantirmoqda. Endi esa xorazmshohlar davlatining tuzilishi va harakterini shu tamal, asosga koʻra sinchiklab oʻrganishni boshlaylik: Xorazmshohlarning idoraviy shakli va muassasalari Saljuqiylar va ayniqsa Sulton Sanjar davri bilan oʻxshashligini koʻrsatadi. Bizning fikrimizcha bu holat tabiiydir. Chunki Xorazmshohlarning otasi Anushtegin Saljuqiylar saroyidagi xizmatda boʻlgan bir maʼmur edi, yaʼni mansabdor shaxs edi. Bundan tashqari uning Qutbiddin Muhammad va nevarasi Otsiz Saljuqiylar tarbiya muassasalarida yetishib chiqqan edi.

Xorazmshohlar Saljuqiylar davlatining ichidan chiqqandilar. Xorazmning jugʻrofiy boshqacha ekanligi mintaqaga «yarim mustaqillik» hokimiyatini berardi. Xorazmni boshqargan voliyar, hokimlar davlatning boshqa barcha voliyaridan farqli oʻlaroq va Saljuqiylarning oldingi anʼanalariga ham koʻra «Xorazmshoh» unvoniga ega edilar. Saljuqiy davlat tashkilotida voliylik maqomi sifatida qaralsa ham, «Shoh» ichki bir unvon boʻlib Xorazmning mentalitetiga xosdir. Bundan tashqari mintaqaning boyligi boshqaruvda anʼanalarning saqlanishiga imkon bermoqda edi. Bu anʼanalar



aristokratiyani yuqori darajada tashkil qilgan oilalar hukmronligining davomiyligi yoki sulola tomonidan boshqaruv tizimining o'zgarmasligini ko'rsatadi.

Tarixiy manbalar shoxidligi tadqiqotlar xulosalariga ko'ra Xorazmshohlar davlatini qurish, mustaxkamlash, uning tashqi hamda ichki barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ma'muniylar ham, keying xorazmshohlar ham avvalo, Arab xalifaligi xokimiyatining o'sha davrdagi dunyo sahnasidagi diniy va davlatdorlik mavqeyi, kuch-qudratini hisobga olgan holda faoliyat olib borganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fuod Ko'pruli, «Xorazmshohlar» IQ, V/I jild, 277 s.
2. O'rta asr uchun oddiy xalq manbalarimizda yo'q deydigan darajada oz o'rin egallaydi. Faqat boshqacha bir sabab bilan dahl qilish shart bo'lganida «Sholiy» kabi nihoyat darajada umumiy bir ifoda bilan aytiladi. Bu mavzuga tarixiylik nuqtai nazaridan bir yaqinlashish uchun qarang: R. Stefan Xompreys, Islom tarixi metodologiyasi: Bir ijtimoiy tarix tatbiqi, tarjimon Murtazo B. dr-Fuot Oydin, Istanbul 2004, 345 sah.
3. Juvayniy, n.a.a. tarjimon O'zturk, Anqara 1999, 249 s; Ibn Al-Asir, Al-Komil Fit-Tarix, X jild, tarjimon Abdulkarim Uzoydin, 223 s; Muhammad b. Muhammad Ali b. Muhammad Shabbonoroyi, Majmua ul Ansob; Mirxoshim Mahdisiy, Texron 1363, 103-134 s; Mirmuhammad b. Sayyid Burhoniddin Xovandiloh Mirxond, Ravzat us-Safo, IV jild, Tehron 1339 yil, 357 s; V.V.Bartold, Mo'g'ul istilosigacha Turkiston, tarjimon Haqqi Dursum Yildiz, Anqara 1990, 346 s.
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 77.
5. Бартольд В.В. О некоторых восточных рукописях. // ИРАН, серия VI, т. XIII. - С. 924. - №4.